


# ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

5 ЖИЛД, 3 СОН

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ  
ТОМ 5, НОМЕР 3

INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY  
VOLUME 5, ISSUE 3



TOSHKENT-2022

# ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ | INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

№3 (2022) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2022-3>

Бош мұхаррир:  
Главный редактор:  
Chief Editor:

Аскаров Аброр Давлатмирзаевич  
педагогика фанлари бүйіча фалсафа  
доктори

Педагогика йұналиши

Бош мұхаррир:  
Главный редактор:  
Chief Editor:

Мухамедова Дилбар Гафурджановна  
психология фанлари доктори, профессор

Психология йұналиши

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ ҚЕНГАШИ EDITORIAL BOARD РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Муслимов Нарзулла Алиханович**  
педагогика фанлари доктори, профессор

**Джораев Мухамматрасул**  
педагогика фанлари доктори, профессор

**Тұракулов Олим Холбұтаевич**  
педагогика фанлари доктори

**Уразова Марина Батировна**  
педагогика фанлари доктори

**Шорена Дзамукашвили**  
педагогика фанлари доктори

**Шорена Вахтангишвили**  
педагогика фанлари доктори

**Нурманов Абдиназар Ташбаевич**  
педагогика фанлари доктори

**Халиков Аъзам Абдусаломович**  
педагогика фанлари доктори

**Аюпова Мукаррам**  
педагогика фанлари номзоди, профессор

**Джумаев Маманазар Иргашевич**  
педагогика фанлари номзоди, профессор

**Хамидов Жалил Абдурасолович**  
педагогика фанлари доктори

**Асилова Гулшан Асадовна**  
Педагогика фанлари доктори, доцент

**Саипова Малоҳат Латиповна**  
психология фанлари бүйіча фалсафа доктори

**Хажиева Ирода Адамбаевна**  
филология фанлари номзоди, доцент

**Азимова Насиба Эргашовна**  
педагогика фанлари номзоди, доценти

**Ахмедова Зебинисо Азизовна**  
фалсафа фанлари номзоди

Page Maker | Верстка | Сайфаловчи: Хуршид Мирзахмедов

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# **МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT**

<b>1. Rakhimov Matlab Farkhodovich</b> PHYSICAL EDUCATION AND SPORT AS A SOCIAL PHENOMENON.....	4
<b>2. Қодирова Мадинабону Тургуновна</b> ОТМ АРАБ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИСИ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ИЖТИМОЙ ШАРТ- ШАРОИТЛАРИ.....	7
<b>3. Asilova G.A.</b> O'ZBEK TILI TA'LIMIDA FONETIK VA LEKSIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH (A1 daraja).....	17
<b>4. Nazarova L.</b> PSYCHOLINGUISTIC FACTORS IN FLIPPED CLASSES OF FOREIGN LANGUAGE LEARNING FOR ADULTS.....	23
<b>5. Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich</b> OILAVIY BOLALAR UYI TARBIYALLANUVCHILARIDA KITOB O'QISH MADANIYATINI SHAKLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.....	28
<b>6. Rejametova Irada Ikramshikovna, Norbutayev Samandar Abdubakirovich</b> YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH.....	33
<b>7. Хажиева И.А.</b> АКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ, КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ.....	38
<b>8. Гизатулина Ольга Ивановна</b> МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ В ВУЗАХ.....	43
<b>9. Носиров Рашод Адилович, Рахимова Машхура Иномжановна, Темирова Светлана Владимировна</b> ЖАМИЯТДА ИЖТИМОЙ ОНГНИНГ ЎЗГАРИШИ - ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАР ТАХЛИЛИ.....	51
<b>10. Зарипова Д. А.</b> ТАЪЛИМНИ АХБОРОТЛАШТИРИШДА ТАЛАБАЛАРНИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ SMART УСУЛИ АСОСИДА ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИНИ АҲАМИЯТИ.....	58

JOURNAL OF

**INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY**

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР | ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ

**Asilova Gulshan Asadovna**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
professori, pedagogika fanlari doktori  
E-mail: gulshanasilova@gmail.com

**O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA FONETIK VA LEKSIK KO‘NIKMALARINI  
SHAKLLANTIRISH (A1 daraja)**

**For citation:** G.A.Asilova. Formation of phonetic and lexical skills in teaching the uzbek language (level a1). Journal of innovations in pedagogy and psychology, Vol. 5, Issue 3, 2022, pp.17-22



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6630107>

**ANNOTATSIYA**

Maqola boshlang‘ich mактабда o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning metodik xususiyatlari bag‘ishlangan. Unda kichik maktab yoshidagi bolalarda nutqiy faoliyatning produktiv turlari bilan ishlash qiyinchiliklari, fonetik ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichlari tavsiflangan. To‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish, nutq me’yorlarini o‘zlashtirish bilan birgalikda ta’limning ushbu darajasiga muvofiq leksik material kiritiladi. Ushbu bosqichda lug‘at bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari passiv lug‘attan faol lug‘atga o‘tadigan leksik birliklarni to‘g‘ri tanlashni talab qiladi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, xorijiy til, kichik maktab yoshi, nutq o‘stirish, fonetik ko‘nikmalar, leksik ko‘nikmalar.

**Асилова Гулшан Асадовна**

Профессор Ташкентского государственного университета  
узбекского языка и литературы имени  
Алишера Навои, доктор педагогических наук  
E-mail: gulshanasilova@gmail.com

**ФОРМИРОВАНИЕ ФОНЕТИЧЕСКИХ И ЛЕКСИЧЕСКИХ НАВЫКОВ В ОБУЧЕНИИ  
УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ (уровень А1)**

**АННОТАЦИЯ**

Статья посвящена методическим особенностям обучения узбекскому языку как иностранному в начальной школе. В ней описаны трудности в работе с продуктивными видами речевой деятельности, показаны основные этапы формирования фонетических навыков у обучающихся младшего школьного возраста. Одновременно с развитием навыков правильного произношения, усвоением речевых норм вводится лексический материал, соответствующий данному уровню обучения. Особенности работы со словарем на данном

этапе требуют правильного отбора лексических единиц, переходящих из пассивного словаря в активный.

**Ключевые слова:** узбекский язык, иностранный язык, младший школьный возраст, развитие речи, фонетические навыки, лексические навыки.

**Gulshan Asilova**

Professor of Tashkent State University of Uzbek  
Language and Literature after Alisher Navoi, Doctor of Pedagogy  
E-mail: gulshanasilova@gmail.com

## FORMATION OF PHONETIC AND LEXICAL SKILLS IN TEACHING THE UZBEK LANGUAGE (Level A1)

### ABSTRACT

The article is devoted to the methodological features of teaching Uzbek as a foreign language in primary school. It describes the difficulties in working with productive types of speech activity, shows the main stages of formation of phonetic skills in students of primary school age. Simultaneously with the development of correct pronunciation skills and the assimilation of speech norms, lexical material corresponding to the given training level is introduced. The peculiarities of working with a dictionary at this stage require the correct selection of lexical units that pass from a passive dictionary to an active one.

**Key words:** Uzbek language, foreign language, primary school age, speech development, phonetic skills, lexical skills.

*“Tilni o‘rgatishda tahdid bilan majburlashdan  
ko‘ra erkin qiziqtirish muhimroq.”*

**Avreliy Avgustin, IV asr**

Mamlakatimizda ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarida o‘zbek tili 2-sinfdan o‘qitiladi. Albatta, bu jarayon qanchalik erta boshlansa, til ta’limi oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun imkon ko‘proq bo‘ladi. Ta’limning ilk bosqichida bolaning shaxsi shakllanadi, uning qobiliyatları aniqlanadi va rivojlantiriladi, o‘quv ko‘nikmalari shakllantiriladi hamda tarbiyasi va xulq-atvori kamol topadi. Bu holatda o‘zbek tili fani o‘quvchini tarbiyalash va shaxsini rivojlantirish vositasi bo‘lib, unga o‘zbek xalqining madaniyati, milliy etiketini singdiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida fikrlash jarayoni shunday rivojlanadiki, unga o‘zga tilni o‘rganish juda qiyin tuyuladi. O‘z ona tilini va xorijiy tilni birinchi sinfdan boshlab o‘rganayotgan bola yana bir tilidagi nutqni, odatda, tabiiy tarzda qabul qiladi, chunki bu yoshda miyaning nutqqa oid funksiyalari yuqori darajada rivojlanadi [1, 241-b.]. Shuningdek, bu yoshda bolalarning notanish tillarni o‘rganish qobiliyati xotira, tasavvur, taqlid qilish layoqati kuchliligi bois namoyon bo‘ladi.

Kichik mакtab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari ularga yangi tillarni o‘rganishda ko‘maklashadi. 8-10 yoshdagi bolalar o‘zga tilni bilvosita va ongsiz ravishda qabul qiladilar. Ularning diqqati hajmi kichik, bir narsaga e’tibor qaratish vaqt qisqa bo‘ladi, biroq yildan-yilga bu ko‘rsatkichlar oshib boradi. Kichik mакtab yoshidagi bolalarda uzoq muddatli xotira yaxshi rivojlangan bo‘ladi, shu bois ular yod olgan ma’lumotlarini juda uzoq vaqt esda saqlaydilar.

Boshlang‘ich sinflarda nutqiy faoliyatning retseptiv turlari, ya’ni tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi qiyinchiliklar bo‘ladi:

- o‘quvchilarning diqqatini jamlash, motivatsiya yaratish;
- o‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojiga mos matnni tanlash;
- matnoldi topshiriqlarini to‘g‘ri tanlash va nazoratni tashkil etish;
- “tovushdan harfga” yondashuvini amalga oshirish;
- o‘quvchilarning fonematik xususiyatlari turliligi;
- o‘quvchilarning operativ xotirasi turliligi;

- vazifani mustaqil bajarish amaliyoti borligi yoki yo‘qligi va h.k. [2; 352-b.]

**Fonetika.** Fonetikaga oid ko‘nikmalar asosan A1 darajada shakllantiriladi. Ilk mashg‘ulotlarda o‘quvchilar olingan ma’lumotni passiv tarzda qabul qilib, miyaga va nutq apparatiga o‘rganilayotgan tilning tovush tizimini moslashtirishga harakat qiladilar. Bu vaqtida bolani shoshirmaslik lozim. Aksariyat hollarda darsda o‘qituvchi o‘quvchining o‘rniga gapirishiga to‘g‘ri keladi, keyin o‘quvchi bilan birga gapiradi, va nihoyat, o‘quvchi o‘zi gapira boshlaydi. Bu bosqichlar turli bolalarda turlicha kechadi.

Bu yoshda bolalarning talaffuz apparati hali qotmagan bo‘ladi, shuning uchun bu vaqtida ularni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish oson kechadi [3, 84-b.]. O‘quvchilarning ona tilida bo‘lmagan fonetik va intonatsion hodisalarga alohida e’tibor qaratish kerak.

Shunisi e’tiborliki, to‘g‘ri talaffuz o‘quvchining o‘rganilayotgan tilda dadil va ishonch bilan so‘zlashiga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘z ona tilida nutqi rivojlangan bolalarda o‘rganilayotgan tilda so‘zlash ko‘nikmalari ham tezroq shakllanadi [4, 17-b.].

Fonetik ko‘nikmalarni shakllantirishni shartli ravishda quyidagi 3 bosqichga bo‘lish mumkin:

- 1) kirish bosqichi;
- 2) kuzatuv bosqichi;
- 3) korreksiya (to‘g‘rilash) bosqichi.

Birinchi ikkita bosqich A1 darajada o‘tiladi.

Kirish bosqichining vazifasi o‘quvchining nutqi tushunarli bo‘lishi uchun o‘zbek tilining tovushlar tizimini o‘zlashtirishni ta’minlashdan iborat. Bunda og‘zaki nutq, o‘qish va yozish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Jumladan:

- 1) o‘rganilgan leksikaga oid bo‘g‘inlar, so‘zlar, so‘z birikmalari, gaplar va qisqa matnlarni o‘qish;
- 2) mavzu bo‘yicha savollar berish va ularga javob berish;
- 3) vaziyatga doir qisqa (2-8 ta gapdan iborat) matn tuzish;
- 4) bo‘g‘inlar, tanish so‘zlar va qisqa gaplarni yozish.

Ushbu bosqichda, odatda, “Tanishuv”, “Mening xonam”, “Oila” kabi mavzular bo‘yicha leksik material kiritiladi va mustahkamlanadi. Leksika va grammatika talaffuzga o‘rgatishga qaratiladi. Har bir yangi so‘z uning tarkibidagi barcha tovushlar o‘rganilgandan keyingina kiritiladi. Talaffuzni mashq qildirishda asosiy birlik so‘z bo‘lib hisoblanadi. Bu esa ilk bosqich uchun so‘zlarni tanlashga bo‘lgan alohida talablarni keltirib chiqaradi:

- so‘z ko‘p qo‘llanishi;
- so‘zni katta doiradagi mavzularda qo‘llash mumkinligi;
- so‘zning aniqligi;
- so‘zning grammatik sharhlari soddaligi;
- so‘zning asosiy sintaktik qoliplarga mos tushishi.

Kuzatuv bosqichi kirish bosqichidan keyin boshlanadi. Uning vazifasi asosiy kursning lingistik materialidagi talaffuz xususiyatlarini sharhlashdan iborat. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- 1) undosh va unlilarning turli o‘rni;
- 2) undosh va unlilar birikishi;
- 3) ko‘p bo‘g‘inli yoki qo‘shma so‘zlarning talaffuzi;
- 4) alohida grammatik shakllarning talaffuzi;
- 5) o‘qish qoidalari.

2-sinfda o‘zbek tili darslarini fonetik mashqlardan boshlash maqsadga muvofiq. 3-4-sinflarda esa alohida so‘zlarning o‘rniga muayyan tovushlar, ko‘p qaytariladigan, maxsus tanlangan she’rlar va tez aytishlardan foydalanish mumkin.

Kuzatuv bosqichida fonetik mashqlarning quyidagi tur va shakllari talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashadi:

- so‘zlar, gaplar, mikromatnlar, dialoglar, she’rlar, tez aytishlarni o‘qish;
- gapning fonetik jihatdan murakkab qismlarini, so‘zlari ketma-ket tizilgan birikmalarini

boshidan oxirigacha o‘qish;

- xatolarni aniqlash maqsadida tinglash;
- biror nimaga munosabatni ohangga qarab aniqlash;
- bir gapni turlicha ohang bilan talaffuz qilish;
- diktorning nutqini sinxron tarzda pauza bilan takrorlash;
- so‘zlarni tinglab, tushunish, eslab qolish va qaytarish va h.k.

Korreksiya (to‘g‘rilash) bosqichi uchun materialni tanlashda birinchi navbatda o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish zarur.

**Leksika.** Boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining o‘zbekcha nutqi o‘quvchilar so‘z boyligini oshiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Nutq namunalari o‘quvchiga muayyan so‘z yoki so‘z birikmasi, jumla qanday aytilishi kerakligi haqida tushuncha beradi.

Yangi so‘zlar bilan tanishish rasm, predmetni ko‘rsatish yoki biror xatti-harakatni namoyish qilish yordamida amalga oshiriladi. Yorqin, rang-barang suratlar o‘quvchilarning e’tiborini tortadi va qiziqish uyg‘otadi hamda ularning hissiy xotirasiga ta’sir ko‘rsatib, so‘zni yaxshi eslab qolishga yordam beradi [5, 40-b.].

Barcha leksik mashqlar ikki turga bo‘linadi:

- 1) so‘z va uning semantikasini talaffuz hamda grammatic shakli bilan birlashtirish;
- 2) ma’noviy xususiyatga ega so‘z birikmalarini shakllantirish.

Leksikani faol o‘zlashtirishga o‘rgatuvchi mashqlar quyidagilardir:

- aralash tarzda berilgan so‘zlardan so‘z birikmalari tuzish;
- gapda qoldirilgan bo‘sh joylarni to‘ldirish yoki gaplarni tugallash;
- berilgan so‘zlar qatoridan qarama-qashi ma’noli so‘zlearning tagiga chizish;
- berilgan so‘zlardan foydalanib savollarga javob shakllantirish;
- berilgan so‘zlar guruhini umumlashtiruvchi so‘z bilan birlashtirish;
- tinglangan so‘z birikmalarining ekvivalentlarini yozish va h.k.

Leksikani o‘rganish shunchaki yangi so‘zlarni yodlash emas, so‘zlar orasidagi grammatic, semantik va boshqa aloqalarni anglash va o‘rganishga qaratilishi kerak. Kommunikativ tamoyil yangi so‘zni gaplarda va vaziyatlarda kiritish hamda mustahkamlashni talab qiladi. So‘zni gapdan tashqarida yodlash esa hech qanday natija bermaydi [6, 161-b.]. Hattoki ko‘p sonli so‘zlarni bilsa-da, ularni gapda ishlatmasdan yodlasa, bola ushbu tilda gapira olmaydi.

Nutq faoliyatining xususiyatiga ko‘ra faol va retseptiv leksika farqlanadi.

Fikrni og‘zaki va yozma ravishda ifodalash uchun produktiv nutq faoliyatining asosini tashkil qiladigan faol leksikadan foydalaniladi.

Retseptiv lug‘at axborotni og‘zaki va yozma shaklda qabul qilish, ya’ni tinglab tushunish va o‘qish uchun zarur so‘zlardan tashkil topadi.

Insonning qisqa muddatli xotirasi imkoniyatlarini hisobga olgan holda, mutaxassislar ilk bosqichda bir mashg‘ulot davomida 5-10 ta yangi so‘zni kiritishni tavsiya qiladilar [7; 61-b.]. Shu mashg‘ulotning o‘zida avval o‘rganilgan 5-10 ta so‘z ham faollashtirib boriladi.

Leksika ustida ishslash jarayoni bir necha bosqichdan iborat.

1-bosqich. So‘zni ko‘rsatish, ya’ni uning fonetik-orfografik ko‘rinishi bilan tanishtirish. So‘z og‘zaki va yozma shaklda beriladi.

2-bosqich. So‘zni tushuntirish, ya’ni uning fonetik va grammatic xususiyatlariga izoh berish (semantizatsiya). Buni ayrim turdagи leksik mashqlar yordamida amalga oshirish mumkin.

1. Leksik birlikni tinglash va ko‘rish orqali tanishga yordam beradigan mashqlar:

- o‘qituvchi aytgan predmetlarni ko‘rsatish;
- o‘qituvchi aytgan harakatlarni bajarish;
- tinglangan gapdagi so‘zlar miqdorini aniqlash;
- so‘zda tushirib qoldirilgan harflar yoki harf birikmalarini topish;
- o‘zakka qarab so‘z ma’nosini topish;
- qatorda berilgan so‘zlardan mavzuga oid so‘zlarni tanlash va h.k.

2. O‘quvchining retseptiv-produktiv ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashadigan

mashqlar:

- berilgan asos va qo'shimchalar yoramida so'zlar va so'z birikmalari yasash;
- berilgan qatordan bir o'zakli so'zlarni tanlab yozish;
- berilgan fe'l bilan qo'llanishi mumkin bo'lgan otlarni aytish;
- frazeologik iborani bir so'z bilan almashtirish va h.k.

3. O'quvchining produktiv nutq ko'nikmalarini shakkantirishga ko'maklashuvchi mashqlar:

- stolda turgan predmetlar nomini aytish;
- rasmga mos so'zlar topish;
- vaziyatga mos so'zlar topish;
- rasmni avval berilgan so'zlar yordamida, keyin mustaqil tasvirlash;
- tasvirlash (xonani, yil fasllarini, odamning tashqi ko'rinishini va h.k.) va b.

Shuningdek, leksik ko'nikmalarini shakkantirishda bolalarning yoshiga mos keladigan, ularning hayoti va faoliyatiga yaqin bo'lgan kichik she'rlar, maqollar, matallar samarali hisoblanadi. Bunday material bilan ishslash quvonch va qoniqish hissini berishi, bolalarning estetik didiga, ruhiy ehtiyojlariga mos kelishi kerak. She'rlarning ijobiy ta'siri, shuningdek, to'g'ri nafas olish, dixsiya, tinglash qobiliyati, ovoz balandligini boshqarish kabi jihatlar yordamida bolalar nutqini o'stirishdan iborat.

### **Иқтибослар / Сноски / References:**

1. Абдурахманова П.Д. Специфика обучения иностранному языку учащихся начальных классов в контексте современных требований в области образования (Abdurakhmanova P.D., The specifics of teaching a foreign language to primary school students in the context of modern educational requirements) // Мир науки, культуры, образования (The world of science, culture, education). – 2016, № 2 (57). – С. 241 – 242.
2. Asilova G.A. O'zbek tilida o'qib tushunish malakalarini rivojlantirish (Asilova G.A., Development of reading skills in the Uzbek language) // Xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy paradigmalari (Modern paradigms of teaching foreign languages). – Samarqand, 2021. – 411 b.
3. Балыхина Т.М. Методика преподавания русского языка как неродного, нового (учебное пособие) (Balykhina T.M., Methods of teaching Russian as a non-native, new language (textbook)). – Москва, 2007. – 185 с.
4. Карабаева Л.И. Методика преподавания русского языка в начальной узбекской школе (Karabayeva L.I., Methods of teaching the Russian language in an elementary Uzbek school). – Ташкент, 2005. – 98 с.
5. Рузметова М.Ш. Бошланғич синф ўқувчиларига чет тили ўргатишнинг психологик хусусиятлари (Ruzmetova M.Sh., Psychological features of teaching a foreign language to primary school students) // Замонавий таълим (Modern education). – 2015, № 9. – Б. 38 – 43.
6. Свалова Е.В. Особенности обучения иностранному языку учащихся младших классов средней общеобразовательной школы (Svalova Y.V., Features of teaching a foreign language to junior school students) // Педагогическое образование в России (Pedagogical education in Russia). – 2014, № 6. – С. 159-162.
7. Сакаева Л.Р., Баранова А.Р. Методика обучения иностранным языкам (Sakayeva L.R., Baranova A.R., Methods of teaching foreign languages). – Казань, КФУ, 2016. – 189 с.
8. Кручинина Г.А. Методика формирования иноязычных лексических навыков знаково-символическими средствами на начальном этапе: Дис. канд. пед. наук (Krucchinina G.A., Methodology of formation of foreign language lexical skills by sign-symbolic means at the initial stage: Dissertation of the Candidate of Pedagogy). – Нижний Новгород, 2014. – 148 с.
9. Бредихина И.А. Методика преподавания иностранных языков: Обучение основным видам речевой деятельности (учебное пособие) (Bredikhina I.A., Methods of teaching foreign languages: teaching basic types of speech activity (textbook)). – Екатеринбург, 2018. – 104 с.

10. Түйчиева С.М. Башлангич синф ўкувчиларига хорижий тил ўргатишнинг педагогик ва психологик жиҳатлари (Tuychiyeva S.M., Pedagogical and psychological aspects of teaching a foreign language to primary school students) // Замонавий таълим (Modern education). – 2014, № 3. – Б. 28 – 31.

# ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

5 ЖИЛД, 3 СОН

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ

ТОМ 5, НОМЕР 3

INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

VOLUME 5, ISSUE 3

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000